

BOLALARDAGI RAXIT KASALLIGI HAQIDA

Xabibullayev Ne'matillo

“Central Asian Medical University”, Davolash ishi yo'nalishi talabasi.

Tel raqami: +998770004935. E-mail: nematilloxabibullayev7@gmail.com

Ismoilova Munisaxon

“Central Asian Medical University”, Davolash ishi yo'nalishi talabasi.

Tel raqami: +998903950990. E-mail: ismoilovamunisa1710@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14632297>

Annotatsiya. Ush bu maqolada bugungi kunda ko'plab bolalarda uchraydigan kasalliklardan biri raxit, uning kelib chiqishi davolash choralari va ularni tabiiy davolashda qanday chora tadbirlar qo'llanishi shuningdek bolalarda paydo bo'lishining asosiy belgilari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit So'zlar: deformatsiya, prikus, D vitamin, fosfor, kaltsiy, qurbaqa qorni, Rentgenografiya.

ABOUT RACHITE DISEASE IN CHILDREN

Abstract. This article provides information about rickets, one of the diseases that occurs in many children today, its origin, treatment measures, and what measures are used in their natural treatment, as well as the main symptoms of its occurrence in children.

Keywords: deformation, precusus, vitamin D, phosphorus, calcium, frog belly, X-ray.

О ЗАБОЛЕВАНИИ РАХИТОМ У ДЕТЕЙ

Аннотация. В данной статье представлена информация о рахите — одном из заболеваний, которым сегодня страдают многие дети, о причинах его возникновения, мерах лечения, о том, какие меры можно использовать для его естественного лечения, а также об основных симптомах его возникновения у детей.

Ключевые слова: деформация, расщелина неба, витамин D, фосфор, кальций, лягушачий живот, рентген.

Raxit — D vitamini yetishmovchiligi va organizmdagi mineral almashinuvining buzilishi bilan bog'liq kasallikdir. Raxitdan ko'pincha bir yoshgacha bo'lgan bolalar aziyat chekadi va kasallar orasida eng ko'p uchraydigan toifa muddatidan oldin tug'ilgan va sun'iy ozuqalar bilan oziqlantiriladigan chaqaloqlardir.

Raxit bola hayoti uchun xavfli emas, lekin uni to'g'ri davolamaslik bola hayotida bir umrlik iz qoldirishi mumkin — skeletning sezilarli deformatsiyalari (qiyshayishlari), prikusning qiyshiqqligi, yassi oyoqlilik va boshqa shunga o'xshash kasalliklar.

Ma'lumki, suyakni to'laqonli shakllanishi uchun fosfor, kaltsiy va ichakda ularni to'g'ri so'rilishi uchun vitamin D kerak. Ushbu komponentlar bolaning organizmiga oziq-ovqat bilan birga tushadi (ona suti, tuxum, baliq, sabzavotlar, va hokazo), vitamin D esa shuningdek quyosh nuri ta'sirida teri ostida ham ishlab chiqariladi.

Yangi tug'ilgan chaqaloqlar hayotga kaltsiy, fosfor va vitamin D zaxirasi bilan birga keladi (bu moddalar bolaning ona qornidagi hayotining so'nggi haftalarda faol to'plana boshlaydi, albatta agar ona to'g'ri va muntazam ovqatlansa va quyosh ostida yursa), shuning uchun bola hayotining 1-2 oyida suyaklar normal rivojlanadi. Keyinchalik bola tez o'sib-rivojlanishi va zaxiralarning tugashi natijasida bolalar tanasi ko'proq «qurilish» materialiga muhtoj bo'ladi. Agar bu ehtiyoj qondirilmasa, kaltsiy va fosfor bola suyaklaridan yuvila boshlaydi. Shuning uchun suyak to'qimalarining zichligi kamayadi va osonlik bilan deformatsiya bo'ladi. Buning oqibatida skelet qismida raxitning yoqimsiz ko'rinishlari yuzaga keladi.

Fosfor-kaltsiy almashinuvining buzilishi suyak to'qimalariga salbiy ta'sir qilishidan tashqari, u shuningdek asab tizimi va mushaklarga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bemorlarda psixomotor rivojlanishning sekinlashuvi, mushaklarning gipotoniyasi va boshqa patologik belgilar kuzatiladi.

Shunday qilib, raxitning asosiy sababi D vitamini yetishmovchiligidir, kasallikning rivojlanishida kaltsiy va fosfor yetishmovchiligi ham ma'lum bir rol o'ynaydi. Quyida keltirilgan holatlarda ularning yetishmasligi yuz beradi:

- Agar bola zarur bo'lgan moddalarni oziq-ovqat bilan qabul qilmasa. Misol uchun, bolaga ona suti o'rniga sun'iy aralashmalar yoki sigir suti berilsa, qo'shimcha oziqni kech joriy etish (6-8 oydan keyin), agar bola ratsionining ko'proq qismini bo'tqalar, ayniqsa manna bo'tqasi tashkil qilsa.
- Bolaning terisiga quyosh nuri uzoq vaqt davomida ta'sir qilmagan bo'lsa.
- Agar ichakda so'rilish va hazm qilish faoliyati buzilsa (bunday hollarda bolaga hatto eng to'yimli oziq-ovqat berish ham raxit xavfini kamaytirmaydi).




RAXIT UCHUN XAVF OMILLARI.

Raxitning aniq sabablaridan tashqari bir necha turtki bo'luvchi xavf omillari mavjud:

- Muddatidan oldin tug'ilganlik — birinchidan muddatidan oldin tug'ilgan chaqaloqlarda oziq moddalarini «zaxira» qilish vaqti bo'lmaydi, ikkinchidan ularda ko'pincha ichaklar bilan bog'liq muammolar va umuman ovqat hazm qilish tizimi bilan bog'liq buzilishlar mavjud bo'ladi.
- Yangi tug'ilgan chaqaloqning vazni (chaqaloq qanchalik og'ir bo'lsa, shunchalik ko'p oziq-ovqat va vitamin kerak).
- Ko'p farzandli homiladorlik. Bunday homiladorlikdan tug'ilgan chaqaloqlar qoida tariqasida kaltsiy va fosfor yetishmovchiligini his qilishadi. Bundan tashqari, bu chaqaloqlar ko'pincha muddatidan oldin tug'ilishi mumkin.
- Ovqat hazm qilish tizimining tug'ma kasalliklari.
- To'qroq teri rangi (qoracharoq bolalarda quyosh nuri ta'sirida kam vitamin D ishlab chiqariladi).

RAXITNING ALOMATLARI VA BELGILARI.



Raxitning dastlabki belgilari (ota-onalar ushbu belgilar mavjudligiga e'tibor berishlari kerak):

- Haddan tashqari terlash.
- Yomon uyqu, asossiz tashvishlanish, uchib tushishi.
- Ensa sohasida soch to'kilishi va kallik.
- Qabziyat (raxitda mushaklar gipotoniya rivojlanadi, ichak mushaklarida ham, buning oqibatida ichak peristaltik harakatlari buziladi va najas sekin harakatlanadi). Ushbu alomatlar bola hayotining 3-4 oylaridayoq paydo bo'lishi mumkin. Agar kasallik ushbu bosqichda aniqlansa (boshlang'ich deb ataladi) va davolanadigan bo'lsa, bolaning salomatligi uchun salbiy oqibatlarga olib kelmaydi. Agar bu vaqt o'tkazib yuborilsa, kasallik rivojlanadi (u avj olish bosqichiga o'tadi) va bolada patologiya yanada jiddiy alomatlari rivojlanadi:

- Bosh suyagi, oyoq-qo'llari va tanasining deformatsiyalari. Ko'rsatkich xususiyati — tekis bo'yin, katta peshona, O yoki X shaklidagi oyoqlarning qiyshayishi va boshqalar.

- Mushaklar kuchsizligi, buning natijasida yana bir belgi — «qurbaqa qorni», ya'ni qorinning osilib qolishi, mushaklar tarangligi yo'qligi.

- Motorika rivojlanishida sustlik (bolaning boshini ushlab turishi, o'girilishi, o'tirishi kuzatilmaydi, garchi uning tengdoshlari allaqachon buni bajarayotgan bo'lsada).

- Tishlarning kech chiqishi.

- Ichki organlarning (birinchi navbatda oshqozon-ichak traktining) buzilishlari.

Asta-sekin, bola, albatta, yaxshilandi (tiklanish bosqichi kasallik boshlanganidan so'ng taxminan 6-7 oydan o'tib boshlanadi), lekin rivojlangan suyak deformatsiyalari butunlay yo'qolib ketmaydi, ba'zida butun umrga qolib ketadi. Bu tor tos suyagi, noto'g'ri prikus, yassi oyoqlik, ko'krak qafasining deformatsiyanuvi (ikki yon tomondan qisilib, oldinga chiqib ketishi).

TASHXIS

Raxitni tajribali shifokor shunchaki ko'rik otkazib qo'ya olishi mumkin, lekin tashxisni tasdiqlash uchun Sulkovcih bo'yicha siydik tahlili o'tkazilishi kerak. Bu ertalab ovqatlanishdan oldin chaqaloqdan olingan siydikda kaltsiy uchun sifat tahlilidir. Tahlilni o'tkazish uchun tayyorgarlik ko'rish kerak (siydik to'plagich olish kerak, ovqatlanishda ba'zi cheklovlar qo'yish va hokazo). O'g'ir hollarda, shifokorlarga kalsiy-fosfor almashinuvining buzilganligi va suyak to'qimalarining shikastlanish darajasini aniqlash kerak bo'lganda, bemorlar yanada kengroq tahlillardan o'tishadi:

• Qonni elektrolitlarga tahlil qilish (kaltsiy va fosfor), ishqoriy fosfataza faolligi (suyak to'qimasi shikastlanishi ko'rsatkich) va vitamin D ning metabolitlari tahlili;

- Kunlik siydikda kaltsiy va fosforni aniqlash;
- Bilak suyaklarini ultratovush tekshiruvi.
- Rentgenografiya (oxirgi paytlarda kam qo'llaniladi).

RAXITNI DAVOLASH

Bolalardagi raxitni davolashda kompleks — maxsus va maxsus bo'lmagan usullardan foyalanib (kasallikning sababini hisobga olgan holda) olib borilishi kerak.

No-maxsus usullari — bu ham to'g'ri ovqatlanish, ham bola kunining to'g'ri tartibi, ham turli umummustahkamlovchi muolajalar (massaj, gimnastika, o'simlik va tuzli vannalar va hokazo).

Maxsus usullari — vitamin D, kaltsiy va fosfor preparatlarni buyurish, teriga sun'iy ultrabinafsha nurlarini ta'sir qildirish.

OZIQLANISH VA KUN TARTIBI

Raxitli bolalarni ovqatlanishini tanani zarur moddalar bilan ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak. Bir yoshacha bo'lgan bolalar uchun eng yaxshi ozuqa — bu ona sutidir. Agar chaqaloqni emizish imkoni bo'lmasa, siz moslashtirilgan sut aralashmasidan foydalanishingiz mumkin, sigir va echki suti buning uchun mos kelmaydi. Bundan tashqari qo'shimcha oziqlantirishni o'z vaqtida joriy etish ham muhim ahamiyatga ega, bola organizmining foydali moddalarga talabi o'sib boraveradi, ona sutida esa aksincha, oyma-oy foydali moddalar miqdori kamayadi. Shuning uchun pediatrlar bolani 6 oylikdan so'ng faqat emizish bilan oziqlantirishni tavsiya etmaydi. Raxit bo'lgan bola uchun birinchi qo'shimcha oziqni 4 oyligidan boshlab joriy qilish mumkin va u sabzavotlar bo'tqasi bo'lsa yanada yaxshiroq bo'ladi. Keyinchalik tabiiy vitamin D manbalari — o'simlik yog'i, tuxum sarig'i va 7-8 oylikdaan boshlab — baliq va go'sht kiritish mumkin. Bundan tashqari, kasal bolaga meva pyuresi va sharbatlar, shuningdek tvorog va sut mahsulotlari ham kerak bo'ladi. Lekin bo'tqalardan, ayniqsa, manna bo'tqasini cheklash maqsadga muvofiq bo'ladi. Kun tartibiga keladigan bo'lsak, har kuni bolani kamida 2 soat ko'chada bo'lishini tashkil qilish kerak. Bolani to'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlari ostida ushlab turishning hojati yo'q (bu hatto zararli), daraxtlarning yashil barglari orqali o'tadigan yorug'lik ham yetarli bo'ladi. Bundan tashqari, chaqaloq gimnastikasi bilan mashg'ul bo'lishingiz, massajga olib borishingiz (yoki mutaxassis maslahatiga ko'ra o'zingiz qilishingiz) kerak.

Shuningdek, raxit bilan ogʻrigan bolalarga tuzli, ignabargli vannalar (qaysi biri tanlanishi shifokor aytadi) koʻrsatiladi. Bunday usullardan soʻng bola yaxshi oziqlanadi va uxlaydi.

RAXITNI DORI-DARMONLAR BILAN DAVOLASH

Davolashning asosi — bu vitamin D qabul qilishdir. Qoʻllaniladigan dori dozasini faqat pediater shifokor koʻrsatadi, chunki oz miqdori ham (yordam bermaydi), koʻp miqdori ham (gipervitaminozga olib keladi) xavfli hisoblanadi.

Vitamin D dan tashqari bolaga kaltsiy va fosfor qoʻshimchalari belgilanishi mumkin (vitamin D siz ularni qabul qilish samarasizdir) . Muddatidan oldin tugʻilgan chaqaloqlarga koʻpincha vitamin D dan tashqari boshqa vitaminlar, shuningdek, barcha zarur minerallar mavjud murakkab dorilar tavsiya qilinadi.

BOLALARDAGI RAXITNI OLDINI OLISH

Raxit koʻplab profilaktik chora-tadbirlar yordamida oldini olish juda oson boʻlgan kasalliklar sinfiga kiradi. Bunday choralar quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

- May-sentyabr oylaridan tashqari yil davomida har kuni vitamin D qabul qilish. Muddatidan oldin tugʻilgan chaqaloqlar uchun shifokor koʻp miqdorda vitamin D buyurishi mumkin.
- Ratsional ovqatlanish. Bola hayotining biinchi oylarida faqatgina ona suti, faqat 4 oydan keyin baʼzi qoʻshimchalar kiritish.
- Har kuni toza havoda sayr qilish. Issiq, quyoshli oylarda bolani koʻp ham oʻrantirib tashlash kerak emas, quyosh bilvosita (toʻgʻridan-toʻgʻri emas) taʼsir qilishi mumkin boʻlgan ochiq teri sohalari qolsin.

XULOSA.

Bundan tashqari, ona homiladorlik davrida ham farzandiga sogʻlom kelajak uchun sharoit yaratib berishi mumkin. Buning uchun ayol muvozanatli ovqat isteʼmol qilishi, toza havoda koʻproq yurishi va shifokor tavsiya qilgan boʻlsa vitamin va mineral komplekslarni qabul qilish kerak.

REFERENCES

1. M.F.Ziyaeva. Z.O.Rizayeva «Bolalarda hamshiralik parvarishi». Toshkent, «Fan va texnologiya» 2012 yil.
2. Q.S Inomov. «Pediatriyada hamshiralik ishi» Toshkent, 2016 yil.
3. “Bemor bolalarni parvarish qilish va onalarga maslahat berish” Uslubiy qoʻllanma. Toshkent, 2010 y.

4. “Bolalikda hamshiralik ishi” fanidan metodik qo’llanma. Toshkent 2016. (UNISEF).

Internet saytlari:

5. www.pediatricsjournal.ru